

## KINOFILMLAR TILIDA SHEVAGA XOS SO'ZLARNING TURLARI

**Shirnova Mexrigiyo Shokirovna,**

*Buxoro davlat universiteti*

*O'zbek tilshunosligi va jurnalistika*

*kafedrası dotsenti, PhD*

[sh.mexrigiyo@mail.ru](mailto:sh.mexrigiyo@mail.ru)

**Annotatsiya** Maqolada mustaqillik davri o'zbek kinofilmlari tilida uchraydigan shevaga xos so'zlarning rang-barang ko'rinishlari tahlilga tortilgan. Dialektizmlarning fonetik, leksik, morfologik, fonetik-morfologik ko'rinishlari kinofilmlardan olingan misollar yordamida tahlil qilindi. Shuningdek, kino tilida dialektizm ko'rinishlari va miqdorini qo'llashda me'yorni unutmaslik muhimligi ta'kidlandi.

**Kalit so'zlar:** shevaga xos so'zlar, kino tili, adabiy me'yor, fonetik dialektizmlar, morfologik dialektizmlar, leksik dialektizmlar, fonetik-morfologik dialektizmlar.

**Kirish.** Kinofilmlar san'at turlari ichida o'zining ajibtovur tabiati, ko'ngilocharligi, tomoshabinni tezda o'ziga rom qilishi kabi bir qator ta'sir ko'rsatish faktorlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, mazkur san'at turi yosh tanlamaganligi bois katta-yu kichikni birdek televizor qarshisidan jilmaslikka undaydi. O'z-o'zidan kino tomosha qilar ekanmiz, qulog'imiz ostida kinoqahramonlarning so'zlari jaranglaydi. Demak, kino tilini ham ruhan, ham jismonan his qilib turamiz.

His etgan filimizda shevaga xos so'zlarning alohida o'rni mavjud, chunki xalqning haqiqiy xalqchilligini, tilning shirasini, tabiiyligini aynan mana shu qatlamdagi so'zlar ta'minlaydi. Mustaqillik davrida suratga olingan kinofilmlarni kuzata turib, dialektizmlarning rang-barang ko'rinishlari mavjudligiga guvoh bo'ldik.

Ma'lumki, shevaga xos so'zlar adabiy tildan fonetik, morfologik, leksik jihatdan farqlanadi. O'zbek kinofilmlari tili misolida bunday farqli so'zlarni quyidagicha guruhlaymiz:

1) *fonetik dialektizmlar:* xammasi (hammasi), voxtili (vaqtli), to'g'irlab (to'g'rilab), nege (nega), kotta (katta), sovdó (savdo), yengi (yangi), shakilli (shekilli), boxona (bahona), valasiped (velosiped), xozir (hozir), navara (nevara), meylis (majlis), chig'adi (chiqadi), xid (hid), mishqi (mishiqli), qarob (qarab), hech qera (hech qayerga), qarindoshlarim (qarindoshlarim), xapa

(xafa), keptur (kelib tur), bolla (bolalar), xaligi (haligi), kerek (kerak), labbiy (labbay), galishtirib (kelishtirib), donish (tanish), dapib (topib) va h.k.

2) *morfologik dialektizmlar*: og'rivotti (og'riyapti), yosh-di (yosh-da), o'zimmi (o'zimni), oshshi (oshni), eshitivol (eshitib ol), bizzi (bizni) va h.k.

3) *leksik dialektizmlar*: billa (bilan), siynim (singlim), janlimisiz (yaxshimisiz), hovva (ha), dim (juda), ag'a (aka), orqayin bo'lavering (xotirjam bo'lavering), kukir (zo'r), don (lekin), birch (murch), g'oz (yong'oq), apka (opa), yoshulli (xo'jayin, yoshi ulug' inson) va h.k.

4) *fonetik-morfologik dialektizmlar*: ettila (aytdilar), sho'tta (shu yerda), shetta (shu yerda), bo'tta (bu yerda), betta (bu yerda), o'tta (u yerda), ta'sir qimeydi (ta'sir qilmaydi), kevrub (kelaverib) va h.k.

Ushbu guruhdagi so'zlarni anchagacha davom ettirish mumkin. Qizig'i shundaki, shevaga xos so'zlarning yuqoridagi kabi shakllari dostonlarda uchraydigan epik klishelarga o'xshaydi, ya'ni filmdan-filmga ko'chib yuradi. Juda ko'p ko'chganligi bois tomoshabin shevadan ko'p foydalanildi deb o'ylamaydi ham, aksincha, doimiy eshitib yoki gaplashib yurgan so'zlaridek tushunadi. Ushbu holat adabiy tilning sifatiga ta'sir qilmay qo'ymaydi, til egalarining "so'z boyligi" oshishiga xizmat qiladi. Til – ijtimoiy hodisa, kino tili ham ijtimoiy hodisa. Ikkalasi ham jamiyatga xizmat qiladi. Kino tilida aks etgan har bir birlik jamiyat tomonidan qabul qilinib, muomalada foydalanilsa, o'z-o'zidan adabiy tilga kiritilishiga asos bo'ladi. Aksincha, tilning nozik ma'no qirralari kino tiliga ko'chsa, nur ustiga nur bo'lardi.

**Taklif va tavsiyalar.** Kinofilmlarda shevaga xos so'zlardan foydalanish me'yoring buzilishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

- 1) aktyorlarning nutq texnikasi to'liq shakllanmaganligi;
- 2) rejissorning loqaydligi;
- 3) ssenariy navisning bilim darajasi;
- 4) aktyorlarni to'g'ri tanlay olmaslik;
- 5) hay'at a'zolarining e'tiborsizligi.

Sheva bilan bog'liq me'yoriy buzilishlar kino tilida kuzatilmasligi uchun kino ijodkorlarga quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz:

- 1) aktyorlarning kelib chiqish hududini inobatga olib, shunga ko'ra rollarni taqsimlash;
- 2) aktyorlarning nutq texnikasi ustida ishlash;
- 3) sifatli hamda savodli ssenariyni tanlay olish;
- 4) ovoz berish ustalari nutqiga e'tibor berish.

**Xulosa.** Istiqloq davri o'zbek kinofilmlari tilini kuzatar ekanmiz, dialektal leksika asosan davlat buyurtmasi asosida suratga olingan kinofilmlari tilida me'yoriy variantda, tijorat kinofilmlari tilida esa ko'proq nome'yoriy

variantda uchrashi kuzatildi. Shevaga oid so'zlar kino tilida ma'lum vazifa, muhim ahamiyat kasb etsagina ishlatilsa, maqsadga muvofiq sanaladi. Aks holda, adabiy til me'yorlarining nome'yoriy ko'rinishlari targ'ib qilinishiga hamda tildan foydalanuvchilar nutqining buzilishiga olib keladi. Natijada filning jamiyatda tutgan mavqeyiga putur yetkaziladi. Shuning uchun kino tilining jamiyat uchun xizmat qilishini yodda tutgan holda dialektal leksikaning ishlatilishida me'yorni unutmazlik lozim.

### ADABIYOTLAR:

1. Hotten J.C. A Dictionary of Modern Slang, Cant, Vulgar words, Used at the Present Day in the streets of London. – London: Picadilly, 1860.
2. Маковский М.М. Английские социальные диалекты. Онтология, структура, этимология. – М.: Высшая школа, 1982.
3. Липатов А.Т. Сленг как проблема социолектики. – М.: Элпис, 2010. – 318 с.
4. Матюшенко Е.Е. Современный молодёжный сленг: Формирование и функционирование: Дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград: ВГПУ, 2007.
5. Джеус Н.А. Лексико-семантическое словообразование в молодежном сленге: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Краснодар, 2008.
6. Казачкова Е.М. Формирование и функционирование молодежного сленга в лингвокультурной среде: Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2006.
7. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1980.
8. Ҳожиёв А., Аҳмедов А. Ўзбек тили лексикологияси. – Т.: Фан, 1981.
9. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Фан ва технология, 2009.
10. Йўлдашева Ш. Ёшлар нутқида сленглар вужудга келишининг психологик сабаблари // Лисон илмининг чин яловбардори. Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари. Илмий конференция материаллари. – Бухоро, 2017. Б.304-305.
11. Рахимов Ғ.Ҳ. Британия ва Америка сленгининг социолингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. –Самарқанд, 2006.
12. Сатимова Д.Н. Инглиз ва ўзбек ёшлар сленгининг қиёсий таҳлили: Филол. фан. фалсафа док. (PhD)автореф. – Андижон, 2020. – 55 б.

13. Shirinova M.Sh. The issue of literary norms in the language of cinema // International Journal on Integrated Education, 2020.March.e-ISSN: 2620 3502. p-ISSN:2615 3785. Impact factor 6.196. Vol.3. Issue 3.–P.35-40.

14. Shirinova M.Sh. The attitude of the language of uzbek films at the period of independence to the lexical norms // Journal NX A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 2021.July.ISSN 2581-4230 (E). Impact factor 7.183. Volume 7. Issue 7. – P. 190-196.

15. Ширинова М.Ш. Ортология адабий меъёр ҳақидаги фан сифатида // Вухоро davlat universiteti ilmiy axboroti. – Вухоро, 2019. 3-сон. – В.127-131 (10.00.00. №1).

16. Ширинова М.Ш. Кино тили тушунчаси ва унинг хусусиятлари // Вухоро davlat universiteti ilmiy axboroti.– Вухоро, 2019. 4-сон. – В.182-185 (10.00.00. №1).

17. Ширинова М.Ш. Ўзбек кинофильмлари номларининг ортологик хусусиятлари // Вухоро davlat universiteti ilmiy axboroti. – Вухоро, 2020. 1-сон. – В. 148-152 (10.00.00. №1).

18. Ширинова М.Ш. Ортология тадқиқи ва унинг тилшуносликда тутган ўрни // Илмий хабарнома. Серия: Гуманитар тадқиқотлар. – Андижон, 2020.– №1(45). – Б. 106-113 (10.00.00. №11).

19. Shirinova M.Sh. The role of intonation in cinema language // Вухоро davlat universiteti ilmiy axboroti. – Вухоро, 2020. 4-сон. – В. 139-143 (10.00.00. №1).

20. Ширинова М.Ш. Кино номлари лингвистик аспект материали сифатида // ФарДУ. Илмий хабарлар. – Фарғона, 2020, 6-сон. – Б.126-129 (10.00.00. №20).

21. Ширинова М.Ш. Кино тилида адабий меъёрнинг ўрни // Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. – Наманган, 2020. 7-сон. – Б.236-240 (10.00.00. №26).

22. Shirinova M.Sh. The concept of film language and its studiedness in linguistic aspect / “Актуальные вопросы современной науки и образования” сборник статей Международной научно-практической конференции. В 2 ч. Ч. 1. –Пенза: МЦНС Наука и Просвещение, 2020. – С. 157-159.

23. Ширинова М.Ш. Ноустуворию ғалатҳои меъёри дар номгузорию кинофилмҳои ўзбекӣ / “Современные проблемы и перспективные направления инновационного развития науки” материалы XV Международной научно-практической конференции молодых ученых и студентов, посвящённой “Годам развития села, туризма и народных ремесел (2019-2021)”. – Тожикистон, 2020. 24 апрель. – С. 548.

24. Qodirovna A. Z., Rizvonovna A. Z. The Role of Romantic Poems in Hussein's Work //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2022. – T. 5. – №. 4.

25. Amonova Z. Q., Nafetdinova Z. S. "HAYRAT UL ABROR" DOSTONIDA KO'NGIL TALQINI //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. Conference Proceedings 1. – C. 129-133.